

2. Boshqaruv xodimlariga keng avtonomiya va mas'uliyat berish. Finlandiya tajribasidan iqtibos olgan holda, oliy ta'lim muassasalarining boshqaruviga erkinlik darajasini oshirish.

3. Strategik va istiqbolli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Singapur tajribasiga asoslanib, boshqaruv xodimlarini globallashtirish sharoitida uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishga o'rgatish.

4. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Boshqaruv xodimlarining chet eldagi nufuzli ta'lim muassasalari bilan tajriba almashinuv dasturlarida ishtirok etishini ta'minlash.

5. Innovatsion g'oyalarni qo'llash va rag'batlantirish. Boshqaruv xodimlarini yangi texnologiyalar va progressiv usullarni joriy etishga ilmiy-eksperimental yondashuvni rivojlantirish.

6. Ochiq va shaffof muloqot tizimini yaratish. Barcha darajadagi xodimlar, talabalar va manfaatdor tomonlar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish.

7. Boshqaruv samaradorligini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish. Xalqaro standartlarga asoslangan monitoring va baholash tizimini joriy etish.

Xulosa. Singapur va Finlandiya kabi mamlakatlarning oliy ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini rivojlantirishdagi tajribalari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun barcha omillarni – strategik rejalashtirish, liderlik, innovatsion yondashuv, hamkorlik va mustaqillikni uyg'unlashtirish lozim. O'zbekiston oliy ta'limi uchun bu tajribalarni o'rganish va mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish orqali boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini yanada takomillashtirish, shu bilan birga butun oliy ta'lim tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati mavjud. Ilmiy asoslangan yondashuv, strategik fikrlash, tizimli yondashuv va liderlik fazilatlarini xodimlarni zamonaviy menejment talablariga moslashtiradi va oliy ta'lim muassasalarini raqobatbardosh, innovatsion va barqaror rivojlanishga yo'naltiradi. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimi xodimlarining menejerlik salohiyatini oshirishda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, maxsus o'quv kurslari, seminar-treninglar va kouching dasturlarini yo'lga qo'yish dolzarb vazifa sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris, 2006.
2. Marginson, S. (2011). Higher Education in East Asia and Singapore: Rise of the Confucian Model. Higher Education.
3. Tirri, K. (2014). The Last 40 Years in Finnish Teacher Education. Journal of Education for Teaching.
4. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Y. Menejment: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 2000.
5. Internet saytlari: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings>

AYOLLARNING ISH BILAN BANDLIGINI IQTISODIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Nabixo'jayeva Dilafro'z Sobir qizi
Sambhram universiteti o'qituvchisi
dilafroznabuxujayeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mehnatga layoqatli qishloq hududlarida yashovchi ayollarning bandlik muammolari tadqiq etilgan. Mehnat bilan bandlikning shakllanishi qonuniyatlaridan kelib chiqib, qishloqda mulkchilik shakllarini takomillashtirish, qishloq ayollari orasida kichik va o'rta tadbirkorlik, kasanachilikni yana-da rivojlantirish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mahalliyashtirish, modernizatsiyalash, ayollar bandligi, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, ayollar tadbirkorligi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik.

IMPROVING THE ECONOMIC REGULATION OF WOMEN'S EMPLOYMENT

Nabikhajayeva Dilafroz Sobir daughter
Sambhram university lecturer
dilafroznabuxujayeva@gmail.com

Annotation: the article explores the employment problems of women living in working-age rural areas. From the laws of the formation of employment with Labor, directions have been proposed to improve the forms of ownership in the village, small and medium-sized entrepreneurship among rural women, the development of workmanship again.

Keywords: localization, modernization, women's employment, socio-economic mechanisms, women's entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, family entrepreneurship, butchery.

УЛУЧШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН

Набихожаева Дилафруз Сабировна
Преподаватель университета Самбхрам
dilafuznabuxujayeva@gmail.com

Аннотация: В статье исследуются проблемы занятости женщин, проживающих в трудоспособных сельских районах. Исходя из закономерностей формирования трудовой занятости, были предложены направления совершенствования форм собственности на селе, дальнейшего развития малого и среднего предпринимательства, домашнего хозяйства среди сельских женщин.

Ключевые слова: локализация, модернизация, занятость женщин, социально-экономические механизмы, женское предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, семейное предпринимательство, домашнее хозяйство.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 7-mart kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida qaror qabul qilingan. Asosiy maqsadlar sirasi juda keng ya'ni 2025-yilda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib belgilandi[1]. Ko'plab Prizedent faronini ko'lamida mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va bitta loyiha doirasida 20 nafar xotin-qizning doimiy bandligi ta'minlanishi nazarda tutilgan, har bir band qilinadigan ishsiz xotin-qiz uchun davlat granti ajratilishi belgilangan ed[2]i. Iqtidorli xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash doirasida hujjati bo'lib, jamiyat ichida ayollar imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik markazlari va boshqa institutlar bilan hamkorlikni nazarda tutadi. O'tgan yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ayollarning jamiyatdagi mavqei va ular bandligi masalalariga to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdilar[3] "Uchinchi vazifa-ayollarni ularga munosib mehnat bilan bandligini ta'minlash masalasidir. Ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo'jaligini keng rivojlantirish ham oqsamoqda".

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tadqiqotning maqsadi qishloq joylarida ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini metodologik va metodik asoslarini yaratish asosida ishsizlikni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari qo'yilgan: qishloq joylarda ayollarni ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini metodologik asoslarini ishlab chiqish; aholining ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tatbiqini zaruriyati va ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash; qishloq joylarida ayollarni ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tuzilishini ishlab chiqish belgilangan. Qishloq joylarida ayollarning ish bilan bandligini ta'minlash muammolarini tadqiq etishning ilmiy va amaliy ahamiyati, respublikaning makroiqtisodiy rivojlanishi va uni qishloq ayollarini ish bilan bandlik va ishsizlik holatlariga ta'sirini baholash, qishloq ayollarini ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish bilan izohlanadi.

Yuqorida ta'kidlangan dolzarblikdan kelib chiqib, qishloq ayollari ish bilan bandligini oshirishni o'rganish, bu boradagi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni chuqurroq tadqiq etish ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ayollarning mehnatidan samarali foydalanish, ularning ish bilan bandligini oshirish masalasi jahon mamlakatlarida ham dolzarb bo'lib, bu boradagi qator muammolarni bartaraf etishni taqazo qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ish bilan bandlik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiyalash jarayonida aholining ish bilan bandligini boshqarish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi, birinchi navbatda, mazkur tizimda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tatbiqini zaruriyati va ahamiyatini tadqiq qilishni taqazo qiladi.

Ish bilan bandlik insonning "Mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash" konstitutsiyaviy huquqi bilan bog'liq eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir[4].

Ma'lumki iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirish bevosita ish bilan bandlikka bog'liqdir. Ish bilan samarali bandlikning xususiyatlaridan kelib chiqib, ayollar bandligi bo'yicha nazariyalar juda ko'p bo'lgan. Ularda "Ayollarning ish bilan bandligi" tushunchasini ta'riflashga turli xil yondashilgan. Xususan, professor Q.X.Abdurahmonov ta'biricha "Ish bilan bandlik deganda ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish anglanilsa, ayollarga nisbatan esa bu "ikki taraf lama ish bilan bandlik", ya'ni ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda, shuningdek oilaviy-maishiy sohada bandligi nazrda tutiladi. Ana shundan kelib chiqqan holda ayollar ish bilan bandligining uch turini ajratib ko'rsatish mumkin: ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan to'la bandlik, ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan to'liq bo'lmagan bandlik, ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan band bo'lmaslik"[5].

A.A.Qayumova va G.M.Zaxirovalarning fikrlaricha ko'ra "Ayollar ish bilan bandligiga xos xususiyat ularni erkaklarga nisbatan 16-24, 25-29, 30-39 yoshlarda bandlarning ko'pchiligini tashkil etishligi bilan bog'liq. Undan keyingi 40-49 yosh guruhida band ayol va erklarning ulushlari teng, qolgan yosh guruhlari esa ish bilan band erkaklarning ustunligi yaqqol ko'zga tashlanadi"[6].

Xalqaro tajribasilar shuni ko'rsatadiki, ayollarning mehnat bozoridagi o'rni nafaqat tashkiliy, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham qamrab oladi. Ayollar mexnati va mehnat sohasida gender tengligi bo'yicha tabaqalash quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanadi.

(1-jadval)

Ishchi kuchi tarkibidagi ayollarning salmog'i;
Ma'muriy-boshqaruv personal tarkibidagi ayollarning salmog'i;
Muhandis-texnik xodimlar tarkibidagi ayollarning salmog'i;
Ishsiz ayollar va erkaklarning miqdori.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ayollar o'rtasida ishsizlik erkaklar ishsizligiga nisbatan ko'proq uchraydi. Ayollar o'rtasidagi ishsizlik 6,2 foiz bo'lgani holda, erkaklar orasidagi ishsizlik 5,5 foizni tashkil etadi. [7]

Umuman olganda, qishloq ayollari ish bilan bandligi tushunchasiga berilgan turli ta'rif va yondashuvlar, ularning mohiyatini anglagan holda bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berishga harakat qildik, ya'ni Ish bilan bandlik-bu kishilarning iqtisodiy faoliyati bo'lib, ularning o'zlari (mehnat daromadi) va jamiyat uchun foydali bo'lib, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdir. Ish bilan band bo'lgan aholi tarkibiga mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar va ayollar kiradi. Iqtisodiy faol aholi ish bilan band va ishsizlar tarkibiga bo'linib, ishsizlar sonining kamayishi ish bilan band bo'lgan aholining o'sishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ayollarni ish bilan bandligi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar bo'yicha tadqiqot metodologiyasidan nazariy-uslubiy jihatdan foydalanilgan. Aholini ishga joylashtirish va ish bilan bandlik sohasidagi qonunchilik borasida "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonun alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi ishga joylashtirish borasida qonunchilik xaritasi hisoblangan "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonun, quyida keltiriluvchi qaror, farmonlar mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi muhim normativ-huquqiy asos hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ish bilan bandlikni oshirishga oid vazifalarni samarali hal etish borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 maydagi "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy ma'suliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2960- sonli qaroriga asosan yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish va kengaytirishda ularga amaliy yordamlar ko'rsatish bo'yicha aniq yo'naltirilgan va tizimli ishlar olib borishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy ma'suliyatini kuchaytirish belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yana-da takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5052-sonli Farmonida mehnat bozorini tartibga solish, ish bilan bandlik, mehnatga doir munosabatlar, mehnat muhofazasi, kasbiy va mehnat standartlari, gender tenglikka rioya etilishi, ish bilan band bo'lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash va qayta tayyorlash, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida bozor munosabatlari sharoitlariga mos keladigan normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilish ko'rsatilgan[8].

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 iyuldagi 428-son qaroriga binoan "Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi to'g'risida"gi Nizom va boshqa bir qator

qonunchilik hujjatlarida ish bilan bandlik sohasida davlat siyosatini yana-da takomillashtirish hamda mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlarning ushbu talablaridan kelib chiqib, ularning bugungi davrdagi ijrosini ta'minlash aholini ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish muammosi davlat hamda jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolishiga imkon yaratishi lozim. Ayniqsa, qishloq joylarida aholining ish bilan bandligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy, tashkiliy va amaliy nuqtai-nazardan tahlil qilinib ish bilan bandlikni oshirishning samarali vazifasi ekanligidan dalolat bermoqda. Qishloq joylarda ayollarni ish bilan bandligi oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tuzilishida ularni ish bilan bandligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarlariga alohida yondashiladi. Ish xaqining nisbatan past darajasi xodimlarning bir qismini ikkalamchi ish bilan bandlik sohasida qo'shimcha ish xaqini izlashga majbur etadi, bu esa mehnat bozorida bosimni oshiradi.

Vaholanki, ayollarning uy bekasi vazifasini bajarishi shartligi ayniqsa, qishloq joylarida qat'iy odatligi sababli ularning ijtimoiy mehnat faoliyatidan ko'ra, uy-ro'zg'or yumushlari va bola tarbiyasini ustun qo'yadi. Natijada ularni ish bilan ta'minlashda ko'plab to'siqlar uchraydiki, bu to'siqlar yangi tashkil etilgan barqaror ish o'rinlari sonining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi mehnat bozorida muvozanatlilikning buzilishiga, respublikamizning ayrim mintaqalarida ishsizlik darajasining oshib ketishiga, noqonuniy mehnat migratsiyasi va norasmiy ish bilan bandlikning o'sishiga olib kelmoqda.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Axborot xizmati taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-2025-yillarda tadbirkorlik faoliyati turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi hamda ijroga qaratildi. Dastur asosida 889 ming 567 nafar xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. Bunda 284 ming 41 nafar xotin-qizlar mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitildi, xususan, 154 ming 972 nafari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga, 129 ming 69 nafari tadbirkorlik ko'nikmalari va moliyaviy savodxonlikka o'qitildi. 257 ming 171 nafari ishga joylashtirildi, 102 ming 544 nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi. 48 ming 22 nafar ayolga 240 milliard subsidiya mablag'lari ajratildi.

Tahlil va natijalar. Respublika aholisining ish bilan samarali bandligini ta'minlash hamda ishsizlikni kamaytirishning oqilona mexanizmlaridan biri-mehnat bozorini maqsadga muvofiq tartibga solish hisoblanadi. Qishloq joylarda ish beruvchilar bilan ish bilan band va ishsiz ayollar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni sotsiologik baholash, asoslangan taklif va tavsiyanomalar ishlab chiqish maqsadida biz tomonimizda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining mehnat resurslari bilan ko'p ta'minlangan (Jizzax, Baxmal, G'allaorol, Sirdaryo, Boyovut, Xovos) tumanlari tanlab olindi.

Respondentlarning ko'pchiligi mehnat daromadlarini oshirish maqsadida o'z ish joylarini xizmat (46,5%) va shaxsiy mehnat (29,8%) sektorlariga o'zgartirishni xohlaydilar. Ayniqsa ayollar orasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mahsulotlarni qayta ishlash, maishiy xizmat ko'rsatish, shaxsiy mehnat faoliyati sohasiga o'tib ishlashni xohlovchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ish beruvchilar bilan yollangan xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yaxshilash uchun respondentlarning e'tirof etishlaricha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: o'z vaqtida imtiyozli ish joylarini taklif etish (19,7 %), ishlovchilarning yuqori unum bilan mehnat qilishlari uchun sharoitlar yaratish (16,5 %), o'z vaqtida yangi ish joylarini tashkil etish (14,2%), o'z vaqtida qonuniy mehnat shartnomalarini tuzish (10,2 %), mehnat haqini to'g'ri belgilash (11,5 %), yaxshi mehnat va dam olish sharoitlarini yaratish (12,4 %), malaka oshirish yoki yangi kasb o'rganish imkoniyatlarini yaratish (11,5%), ish beruvchilar bilan uzviy aloqalarni o'rnatish (5,7 %). (2-jadval)

Ayollarni ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solish omillarini tasniflash

Birlamchi omillar	Ikkalamchi omillar
Ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga soluvchi me'yoriy-xuquqiy hujjatlarni tatbiq etilishi	Ishsizlik nafaqasi miqdorini yashash uchun zarur bo'lgan eng kam xarajatlar qiymatiga tenglashtirish.
Minimall iste'mol savatchasidan kam bo'lmagan ish xaqini belgilash	Ayollar talabi va organizmiga mos serdaromad ish joylarini yaratish
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan daromadlarni ortishi	Ayollarni tadbirkorlik faoliyatlarida turli iqtisodiy imtiyozlar berish
Shaxsiy yordamchi xo'jalikni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash	Xodimlarning malakaviy ko'nikmalarini oshirish
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni optimallashtirish	Ayollar bilan ularning muammolarini hal qilish bo'yicha muloqotda bo'lish, ularga ruhiy, huquqiy yordamlar ko'rsatish

Qayta ishlash sanoati, ijtimoiy infratuzilma va boshqa tarmoqlarning korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ta'minlash	Migratsion jarayonlarda noqonuniy faoliyatni cheklash
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------

Shu o'rinda qishloq joylaridagi ayollarning ijtimoiy hayotdagi rolini yana-da oshirish, samarali ish bilan bandligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni tadqiq qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2-jadvalga qarang). Ayollarning ish bilan bandligini tartibga solishda birlamchi va ikkilamchi omillar asosiy o'rin egallab, ular ayollarning ish bilan bandligi samaradorligini oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy, migratsion, demografik, munosabatlar gender tengligi darajasida tahlil etishni taqazo qiladi. Xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida 5 ta tuman tajribasi respublika bo'yicha ommalashtirildi. Jumladan, xonadonlarda uchtadan ortiq daromad manbalarini yaratish bo'yicha Sayxunobod tajribasi, hunarmandchilikni rivojlantirish orqali ayollar bandligini ta'minlash bo'yicha Jondor tajribasi, aholi daromadlarini oshirish – xonadonda moliyaviy paketlarini joriy qilish bo'yicha Nishon, Shofirkon tajribasi, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan kooperatsiyalar tashkil etish bo'yicha Bog'dod tajribasi, kashtachilik maktabi va qo'y junini qayta ishlashni yo'lga qo'yish bo'yicha Shahrisabz tajribasi ommalashtirildi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. O'zbekistonda so'ngi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ustuvor rivojlantirish, uni har tomonla qo'llab-quvvatlash, ushbu sohaga davlatning aralashuvini cheklash borasida talaygina ishlar amalga oshirildi mamlakatimizda kichik biznes subyektlarini faoliyatining xuquqiy asoslari shakllantirildi. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotidagi yetakchi kuchga aylanib, bozorlarimizni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, aholi daromadi va farovonligini oshirishning asosiy manbai, ish bilan bandlik bilan bog'liq muammolarni hal etishning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Ma'lumki, kichik korxonalar roli yangi ish joylarini yaratish va iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etishda namoyon bo'ladi. Kichik biznesga soliq yukini qisqartirish ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari, bunday holat kichik biznes rivojlanishini davlat tomonidan moliyalashtirish zaruriyatini ham kamaytiradi. Bugungi kunda kichik biznesni yana-da qo'llab-quvvatlash vazifasi har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etayotganligini qayd etish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir kredit siyosati sezilarli darajada takomillashtirildi. Ularga davlatimiz tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 2015 yildagiga nisbatan 1,3 baravar oshdi va 15,5 trillion so'mni, shu jumladan, mikrokreditlar 3,3 trillion so'mni tashkil etdi. Tijorat banklari tomonidan kollejlarning bitiruvchilariga o'z biznesini tashkil etishi uchun qariyb 362,1 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar berildi, bu esa 2015 yildagidan 1,3 baravar ko'proqdir[9].

Respublika bo'yicha 2007 yilda 90,1 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari berilgan bo'lsa, 2016 yilda 1 trillion 646 mlrd so'mdan ortiq mablag' tijorat banklari tomonidan ayollarning istiqbolli loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi. Joriy yilning 1 aprel holatiga tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga tijorat banklari tomonidan o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,5% ko'p, ya'ni 514,1 mlrd. so'm kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizdagi minglab ayollarning o'z mustaqil faoliyatiga, daromad manbaiga ega bo'lishlarini, oilalarning byudjeti yanada shakllanishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Xulosa va takliflar. Oilaviy biznesni innovatsion tadbirkorlik asosida tashkil etishga erishish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda, uning xududiy tuzilmasini takomillashtirishda har bir tarmoqning biznes shakli sifatida oilaviy biznes faoliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi innovatsion loyihalarni amaliyotga keng targ'ib qilish maqsadga muvofiq.

Mening fikrimizcha, turli xil iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlar va kvotalashtirilgan ish joylarini taqdim etish yo'li bilan mehnatga layoqatli yosh va ko'p bolali ayollar faoliyatlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bularning bari, ayollarga yelkadosh bo'lish, ularning og'irini yengil qilish, mehnat bandligini ta'minlash orqali oilalar farovonligi, ro'zg'or to'kinligiga erishish yo'lidagi ibratli va amaliy ishlar sanaladi.

Qishloq joylarda ayollar tadbirkorligi, ayniqsa oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish uchun quyidagi samarali iqtisodiy mexanizmlarni tatbiq etish lozim:

- ✓ ayol tadbirkorligini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida me'yoriy- qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish;
- ✓ tijorat banklari, sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hamda xizmatlar ko'rsatish;

- ✓ qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish va servis sohalari korxonalarida ayollar uchun tadbirkorlik ish joylarini yaratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ayollar oilaviy tadbirkorligi uchun iqtisodiy imtiyozlar taqdim etish;
- ✓ qishloq joylaridagi ayollar tadbirkorlari uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy axborot va maslahatlarni beradigan markazlar, biznes-inkubatorlar faoliyatini yanada takomillashtirish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi" (2012) Darslik "Fan va texnologiya". 129 b.
2. Ubaydullayeva R. Ata-Mirzayev O., Umarova N. "O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi" ilmiy-o'quv qo'llanma. T. "Universitet", 2004.- 68 b.
3. Mamaraimov Q. "Agrar sohada iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mehnat resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari" i.f.d. diss. avtoref. T. 2004 -25 B.
4. Qayumova A.A, Zaxirova G.M. "O'zbekiston Respublikasida aholi bandligining yosh-jins xususiyatlari" Iqtisod va moliya jurnali № 2 2016. 62 B.
5. O'zbekiston Res. Qonun hujjatlari to'plami 3-son (763), 2017 y. 3 B.
6. <http://www.norma.uz>. 2017
7. <https://uza.uz/posts/673693>

THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE SERVICES IN THE CONTEXT OF THE POSTINDUSTRIAL ECONOMY: EVIDENCE FROM A PUBLIC SURVEY IN TASHKENT CITY

Ayubov Rakhmatullo Ravshanbek ugli

Leading Specialist, Institute for Macroeconomic and Regional Studies under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan

r.ayubov@imrs.uz

Abduganiyeva Yulduz Toshtemirovna

Chief Specialist, Institute for Macroeconomic and Regional Studies under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan

y.abduganiyeva@imrs.uz

Annotation: This article examines the development and application of innovative services in Tashkent City as an essential element of the postindustrial economy. Based on a sociological survey of 270 residents across six districts, the study explores patterns of usage, awareness, and satisfaction with innovative services such as digital payment systems, online transport platforms, e-learning tools, and co-working centers. The findings reveal that payment systems (74%) and online taxi services (40%) are the most widely used, while e-learning and electric vehicle charging services remain underdeveloped. Major barriers include lack of specialists (40%), insufficient infrastructure (28%), high costs (27%), and low public awareness (26%). The article also compares Uzbekistan's progress with international experiences (Estonia, India, and Canada) and provides strategic recommendations to enhance digital inclusion and foster innovation-driven growth within the framework of the postindustrial economy.

Keywords: innovative services; postindustrial economy; digitalization; Tashkent City; technological development; survey analysis.

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ В КОНТЕКСТЕ ПОСТИНДУСТРИАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДА ТАШКЕНТА

Аюбов Рахматулло Равшанбек угли

Ведущий специалист Института макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан, г. Ташкент, Республика Узбекистан

r.ayubov@imrs.uz

Абдуганиева Юлдуз Тоштемиевна

Главный специалист Института макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан, г. Ташкент, Республика Узбекистан

y.abduganiyeva@imrs.uz